

## O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi ko'p qirrali sheriklikni mustahkamlashga qaratilgan hujjatlar imzolandi



Oliy darajadagi muzokaralar yakunida hujjatlarni imzolash va almashish marosimi bo'ldi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon tarixiy ahamiyatga ega Abadiy do'stlikni mustahkamlash va ittifoqchilik to'g'risidagi deklaratsiyani imzoladilar.

Bundan tashqari, hukumatlar, vazirlik va idoralar darajasida ko'p qirrali O'zbekiston-Tojikiston hamkorligini yanada kengaytirishga qaratilgan 11 ta hujjat imzolandi.

Jumladan:

- Sanoat kooperatsiyasi sohasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash va kengaytirish bo'yicha "yo'l xaritasi";
- madaniyat vazirliklari o'rtasida 2022-2023 yillarga mo'ljallangan madaniyat va san'at sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;
- O'zbekistonning Jizzax viloyati va Tojikistonning So'g'd viloyati o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi";
- Atrof-muhitni muhofaza qilish va suvdan oqilona foydalanish sohasida hamkorlik to'g'risida memorandum;
- Ipakchilik tarmog'ida hamkorlik to'g'risida memorandum.

